

TA'LIM MUASSASALARIDA YOSHLARNING HARBIY
VATANPARVARLIK TARBIYASI*Mamajonov Firuzbek Baxrom og'li**Komilov Sanjarbek Olimjon o'g'li**Boltaboyev Shoxonbek Umidjon o'g'li**Farg'onan davlat universiteti**harbiy ta'lif fakulteti talabalari***Annotatsiya**

Ushbu maqolada Yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash ishlarining tubdan o'zgarishi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, shuningdek, tashkiliy-uslubiy jihatlardan to'liq foydalanishni taqozo etilishi yoritilgan. Buning uchun, tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, an'anaviy tarbiya shakllarini tanlash va mustahkamlash, hozirgi sharoitda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi vazifalarini to'la amalga oshira oladigan yangi shakl va uslublarni izlash va ularni hayotga tatbiq etish lozim. Bunda asosiy e'tiborni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining shakl va uslublarini tashkiliy jihatdan ta'sirchanligiga va ularni Vatan himoyachisi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganligiga qaratish zarur.

Kalit so'zlar: Harbiy vatanparvarlik, Qurolli Kuchlar, Harbiy texnik tayyorgarlik, Axloq, Vatan, Yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash, Harbiy Vatanparvarlik tarbiyasi, Mudofaaga ko'maklashuvchi tashkilot.

Kirish

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari,

jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

O‘rta ta’lim o‘quv yurtlarida ta’lim va tarbiya olayotgan yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va hukumati, ta’lim boshqarmalarining muhim faoliyatlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarga ularning bolalik yillaridan boshlab, O‘zbekiston xalqining boy an’analari va milliy qadriyatları, xalqimizning buyuk o‘tmishi xaqidagi bilimlarni, shuningdek, o‘z Ona-Vatani O‘zbekistonning sadoqatli himoyachilari bo‘lishini ongli ravishda his qilishlarini singdirib borish kerak.

Hozirgi sharoitda harbiy faoliyatni murakkablashib borishi, bugungi kun yoshlariiga qo‘yilayotgan talablarning o‘sishi, o‘quvchi Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga yangicha nazar bilan qarash va yondoshishni taqozo etmoqda. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi qadriyatlar va sifatlarni shakllantirishda asosiy yetakchi rol ta’limga, ya’ni o‘qitishga tegishlidir. Lekin bu inkor etilmaydigan nazariy xulosa, fan asoslarini o‘qitayotgan o‘qituvchilarining uslubiy materiallari va amaliy ishlarida to‘la amalga oshirilmayapti. Umumta’lim fanlari o‘qituvchilarining aksariyat qismi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi vazifalariga yuzaki yondoshadilar va ko‘p hollarda o‘zlari o‘qitayotgan fanlarning bu vazifalarni yechishdagi imkoniyatlarini tasavvur ham qilmaydilar. Vatan himoyachilarini tarbiyalash ishlariga pedagogik jamoalari tomonidan CHQBT rahbari, «Vatanparvar» tashkiloti, Mudofaa ishlari bo‘limlari va yoshlar tashkilotlarining tor doiradagi faoliyatları deb qaraladi. Lekin shu narsa aniqki, agar o‘quvchilarining muhim hayot faoliyatlarining biri o‘quv faoliyati tinchlikni saqlash, mamlakat mudofaasini mustahkamlash va uning himoyasiga shay bo‘lish kabi yuksak g‘oyalar bilan boyitilmasa, u holda ularni vaqtinchalik tadbirlar vositasida o‘rnini to‘ldirish samarasiz bo‘lib chiqishi mumkin.

Bugungi kunda keng fikrlovchi, chuqur e’tiqodli insonlargina vatanparvar fuqaro bo‘lishi mumkin. Vatan himoyasiga shaylik, o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ular tomonidan jamiyat madaniyati boyliklarini o‘zlashtirishning natijalaridan kelib chiqadi.

Bo‘lajak vatan himoyachisini tarbiyalash, eng avvalo vatanpavarlik tuyg‘usidagi intilishlar bilan to‘ldirilgan yoshlar turmush tarzini tashkillash demakdir. Bunga esa tarbiya muassasalarining o‘zaro hamkorlikdagi harakatlari bilan erishish mumkin.

Harbiy Vatanparvarlik tuyg‘usini yoshlarda shakllantirishda bir qator amallarga rioxay qilish maqsadga muvofiqdir, ular Vatan himoyasiga shaylikning shakllanganligini ifodalab beradi. Ular quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishga turg‘un ishonch, o‘quvchilar tomonidan o‘z vatanparvarlik burchlarini chuqur anglash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining tashqi va ichki siyosatiga, mamlakat mudofaasini va Qurolli Kuchlarini mustahkamlash bo‘yicha olib borayotgan tadbirlarga ishonch;

O‘quvchilarning yetakchi faoliyatları o‘qish, mehnat va sport bilan shug‘ullanishlarining, vatanparvarlik yo‘nalishida bo‘lishi;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidagi ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarni yengib o‘tishga o‘z-o‘zini ongli ravishda tayyorlash;

Harbiy nizom talablari va komandirlarning buyruqlarini so‘zsiz bajarishdagi qobiliyati, ularning Vatan topshirig‘i deb qabul qilish, yurish-turishini boshqarish;

Harbiy intizom me’yorlari va talablarini har qanday sharoitda ham bajarishga shaylik;

Hayot uchun xavfli bo‘lgan sharoitlarda ham qahramonlik namunalarini ko‘rsata olishga shaylik.

Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi milliy mafkuraga asoslanib, jangovar hujumkor xususiyatlarga ega bo‘lishi, Yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash borasida uchrayotgan barcha kamchiliklarni qat’iy ochib tashlashi va ularni tuzatish tadbirlarini ishlab chiqishi kerak.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga tarixiy yondoshish ham ahamiyatga ega, bu tarbiya mazmuni, uning shakl va uslublari kechayotgan tarixiy vaziyatga moslashishi kerak, degan mazmunni ifoda etadi. Bu harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini o‘zbek xalqining o‘tmishdagi jangovar va mehnat an’analariga va hozirgi davrdagi mustaqil suveren, iqtisodiyot jihatdan rivojlangan, xalqaro miqyosda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratayotgan xalqimizning qahramonona mehnatlariga tayanib, ular asosida olib borilishini nazarda tutadi.

Amur Temur, Bobur kabi dono hukmdorlar hokimiyatni boshqargan zamonlar o‘zbek davlatchiligining, sivilizatsiyasining eng gullab yashnagan va eng yuqori darajaga ko‘tarilgan davrlari bo‘lgan. Bunday buyuk kishilar hukmronlik qilgan yerlarda hunarmandchilik, ilm-fan va san’at gullab yashnagan. Xuddi shu davrlarda xalqimizning harbiy san’ati ham o‘zining eng yuksak darajasiga yetgan. Biz Amur Temur, Bobur kabi buyuk sarkardalarimizning mustaqil, qudratli davlat tuzilishi uchun olib borgan qahramonona kurashlarini bilamiz va ular bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining muhim tamoyillaridan biri, bu-harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini haqiqiy harbiy xizmat sharoitlariga muvofiqligi tamoyilidir. Bu tamoyil CHQBT rahbaridan, harbiy ish va harbiy xizmat asoslari dagi yangiliklardan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishni, yangi jangovar texnika va qurollarni bilishni, Qurolli Kuchlar tuzilishidagi o‘zgarishlar va qo‘sishlardagi ta’lim va tarbiya jarayonidagi ilg‘or shakl va uslublar asosida ish yuritishni talab etadi. Bo‘lg‘usi Vatan himoyachilarini harbiy xizmat davrida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga o‘rgatish katta ahamiyatga egadir.

Har qanday murakkab tizim singari harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ham boshqaruv bo‘lishini taqozo etadi. Boshqaruv vazifalari ko‘p qirralidir, lekin uning eng asosiysi bu boshqariladigan tizimning holatini o‘rganishdir. Bu yerda so‘z harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tashkillanishi va uning natijalari, ya’ni o‘quvchilarning harbiy xizmatga munosabati, Vatan himoyasiga shayligi to‘g‘risida va bu ishlarni takomillashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish to‘g‘risida bormoqda.

Bu asosiy vazifalardan tashqari, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining hisobotini yurgizish va uni tahlil qilish, pedagog kadrlarni tanlash va joyiga qo‘yish, ularning vazifalarini belgilash va tartibga keltirish, shuningdek, bu ma’suliyatlari ishda ularni nazorat qilish va rag‘batlantirishni ham o‘z ichiga oladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi pedagog boshqaruvining muhim tamoyillari quyidagilardir:

Ilmiylik, ya’ni har xil yoshdagi o‘quvchilarda harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlanishi qonuniyatlarini hisobga olishga asoslanganligi;

Jamoaviy va yakkaboshlik boshqaruvining birligi;

Oshkoraliq, ishchanlik, butun pedagog jamoaning o‘quv yurti boshqaruvida qatnashishi;

Har bir kishining topshirilgan topshiriqqa shaxsiy ma’suliyati;

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkillashning rejaga asoslanganligi;

Tarbiyaviy ishlarda eng muhim yo‘nalishlarni tanlab olish va ularni rivojlantirish malakasining borligi;

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida keng ommani jalg qilish va boshqalar.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini - O‘zbekiston xalqi har bir tarixiy vaziyatda yechayotgan, amalga oshirayotgan vazifalariga yondoshtirishni nazarda tutadi. Yoshlarga xalqimiz, jamiyatimiz taraqqiyotini yuksaltirish borasida olib borayotgan ishlar, bo‘layotgan ulkan o‘zgarishlar natijalari va qurilish jarayonida uchrayotgan kamchiliklar haqida to‘la ma’lumot berish, ularni xalqimiz amalga oshirayotgan tarixiy, olamshumul mehnat jarayoniga jalg qilishda juda muhimdir.

Vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaning birligi, bu harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining yana bir muhim tamoyillaridan biridir. Vatanparvarlik tarbiyasi - bu Yoshlarni, xalqimizng qahramonan o‘tmishini, ulug‘ ajdodlarimiz va xalqimizning

buyuk sarkardalari, jasur o‘g‘lonlari qahramonliklari va ular hayotiga tayanib, ularda Vatanga cheksiz muhabbat, Ona yurt dushmanlariga nafrat ruhida tarbiyalashni, o‘z Prezidenti va xalqiga hamisha sadoqatli bo‘lib qolish kabi xususiyatlarni shakllantirish demakdir.Ushbu xususiyatlar quyidagilardir:

Vatanimiz mustaqilligining garovi bo‘lgan Qurolli Kuchlarimiz harbiy qudrati har bir kishining mehnati bilan yaratilishi va uni yanada mustahkamlash uchun chuqr bilim, ko‘nikma va malakalar, ijodiy faoliyat, intizomiylik va yuksak ish qobiliyati zarurligiga o‘quvchilarning ishonchi;

O‘zbek xalqining jangovar va mehnat an'analarini ruhan qabul qilish, Vatan himoyachisi bo‘lgan ideallarning ularda bo‘lishi;

O‘quvchilarda ijtimoiy tuyg‘ular bo‘lishi (burch, mas’uliyat, vatanparvarlik, dushmanqa nafrat, yuksak sezgirlik va boshqalar);

«Vatanparvarlik», «Vatan», «Ona yurt», «Harbiy burch», «Jasorat», «Qahramonlik», «Jasurlik», «Fidoyilik» kabi va boshqa tayanch tushunchalarning mazmunini chuqr anglashlar va boshqalardir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas’uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni mustahkamlashdan iborat.Yuqorida keltirib o‘tilgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy tamoyillari, bir-birlari bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lib , ular doimo bir-birlarini to‘ldirib turadilar. Shuning uchun ham harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonini ana shu omillarni hisobga olgan holda rejalashtirish va tashkillash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Ushbu maqoladan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Vatanni himoya qilish, uni asrash to‘g‘risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala

bo‘yicha shaxsiy e’tiqodni shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma’naviy-ruhiy tayyorgarliklarini oshirishga yordam beruvchi ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish yoritilgan. Xalqimizning umumiy harbiy ruhini ko‘tarishda, yoshlarni matonatli, shijoatli qilib tarbiyalashda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan harbiy bilimlarni ommalashtirish, harbiy vatanparvarlik sirlarini o‘quv yurtlarida o‘qitish ham samarali omillardan hisoblanadi. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida, Yoshlar o‘z Vatani va xalqining o‘tmishi naqadar buyuk bo‘lganligini yaxshi bilib va tushunib olishlari kerak, biz kelajagi buyuk- O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, o‘lkamizning ana shu buyuk o‘tmishi bizga katta ishonch, intilish, qobiliyat va kuch-quvvat baxsh etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonun, 2002.
2. «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonun 2001 yil 11 may.
3. R. Mamajonov Harbiy qonunchilik asoslari fanidan Darslik Poligraf Super Servis, 2024.
4. Sh. Tilavoldiyev Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari fanidan Darslik. Poligraf Super Servis, 2024.
5. T.Turg‘unboyev Harbiy qismlarda vatanparvarlik va ma’naviy ma’rifiy tarbiya uslubiyoti fanidan O‘quv qo‘llanma Poligraf Super Servis, 2025.
6. “Vatanparvar” MKT Nizomi.
7. T. Inoyatov “ Vatanga xizmat – muqaddas burch”.
8. R.Madaliyev Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi fanidan Darslik. Fdu nusxa ko‘paytirish bo‘limi, 2024.